ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OZARBAYJON VA O'ZBEK TILLARIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Mammadova Shakar,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Ozarbayjon davlat pedagogika universiteti, Turkologiya markazi direktori
Boku, Ozarbayjon

Xamidov Mansur,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Termiz davlat universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
Termiz, O'zbekiston

Biz yashab turgan olam va undagi hamma narsalar, voqeliklar, hodisotlar zanjirida, uning markazida INSON turadi. Jamiyatdagi turli xil sohalar qatori Tilshunoslikda ham bu asosiy jihat hisoblanadi. Buni «antroposentrik» tadqiqotlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ilmiy ishlarning bevosita va bilvosita tadqiq obyektida inson va u bilan bog'liqliklar mujassamlashadi. Buni iboralar, ideomalar, o'xshatishlar, paremiologik, frazeologik birliklar va boshqa lingvistik sohalarda ko'rishimiz mumkin. Biz fikr yuritmoqchi bo'layotgan mavzu ham aynan shu jihat bilan bevosita bog'liq.

Inson hayot kechirar ekan u o'zini o'rab turgan borliqni tasavvurida, tafakkurida idrok etadi. Bunda, albatta, taqqoslashlar, o'xshatishlar, shuningdek, kuzatishlar asosida o'rganadi. Dastlab, kuzatishlar, o'rganishlarni birinchi navbatda o'zidan boshlaydi. Yana ham aniqrog'i tana a'zolariga nisbatan tahlil qiladi. Tilshunoslikda inson tana a'zolarini «somatik birliklar» deb nomladi.

Ozarbayjon va o'zbek tillarida frazeologik tizimning shakllanishida **somatizmlarning** (tana a'zolari nomlarining) roli alohida ahamiyatga ega. Bu turdagi frazeologik birliklarning semantik tuzilishida odatda tegishli a'zoning vizual ko'rinishi yoki fiziologik funksiyasi asos qilib olinadi. Masalan, **«quloq solmoq»** frazeologizmi *tinglash, aytilgan gapni qabul qilish va unga rioya etish* ma'nolarini ifodalaydi. Bu yerda bevosita quloqning eshitish funksiyasiga ishora qilinadi.

Somatik frazeologizmlar zamonaviy turkiy adabiy tillarda va jonli so'zlashuv nutqida eng keng tarqalgan til birliklari qatoriga kiradi. Ularning qo'llanish chastotasining yuqoriligi sodda grammatik tuzilishi, xalqchilligi, dolzarb mazmuni va yuqori obrazliligi bilan izohlanadi.

Ozarbayjon va o'zbek tillaridagi somatik frazeologizmlar o'rtasida kuzatiladigan strukturaviy va semantik o'xshashlik har ikki xalqning umumiy tarixi, madaniyati va ijtimoiy-maishiy tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyatning kollektiv tajribasiga tayanadigan bu birliklarning har ikki tilda parallel tarzda uchrashi tabiiy hol hisoblanadi. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan ozarbayjon va o'zbek tillari nafaqat frazeologik tizimi jihatidan, balki umumiy leksik fondining boyligi nuqtai nazaridan ham bir-biriga yaqin hisoblanadi.

Somatik frazeologik birikmalar barcha tillarda bo'lgani kabi turkiy tillarda ham keng tarqalgan til birliklaridir. Muhim semantik va metaforik aloqalarni yaratish uchun qo'llanadigan anatomik leksemalar barcha tillarda uchraydi. Inson tanasining qismlarini ifodalovchi somonimik komponentli somatik frazeologizmlarga **bosh, soch, yuz, bo'yin, ko'z, qosh, burun, og'iz, til, tish, qo'l, tizza, oyoq, barmoq** va boshqalar kabi somatizmlar kiradi.

«Turk tillari leksikasining qadimgi qatlami inson tanasi qismlari va a'zolarining nomlari bilan bog'liqdir. Ko'p ma'nolilik, metaforik va metonimik xususiyatlarga ega bo'lgan bunday nomlar o'z asosiy ma'nolariga ko'ra anatomik tushunchalardir. Tana qismlari va a'zolarining nomlari turkiy tillarining dastlabki shakllanish davriga to'g'ri keladi. Shu sababli ular umumturkiy xususiyatga ega bo'lib, aksariyat turkiy tillarida bir xil tarzda qo'llanadi»[1].

[1] Məmmədova X. (2018). Azərbaycan dilinin dialekt və şivələrində frazeoloji birləşmələr // İpək Yolu, No.4, səh. 104-107

Ozarbayjon va o‘zbek tillarida qo‘llanadigan frazeologik birliklarning katta qismini aynan **somatik frazeologizmlar** tashkil etadi. Shu jihatdan somatik komponentli frazeologizmlar tilimizning boyishi va rang-barang bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. «Hatto o‘g‘uz turklarining eng qadimgi davrlarini aks ettiruvchi **«Qo‘rqut ota kitobi»**[1] dostonlarini ko‘zdan kechirsak ham, dostonning har bir bo‘limi somatik frazeologizmlarga boy ekanligini kuzatish mumkin»[2]. Shuningdek, Turkiy tillarning ensiklopediya sifatida e’tirof etiluvchi ilk manbalardan biri M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi «Og‘iz yesa ko‘z uyalur», «Tirishqoqning labi yog‘li, erinchoqning boshi qonli»[3] kabi paremalarda somatik so‘zlar salmoqli o‘rin egallaydi. Ushbu xususiyatni iboralarda ham uchratishimiz mumkin[4]. Eng mahsuldorlari «ko‘z, bosh, yurak»dir. Bu kabi somatik so‘zlar nafaqat o‘zbek tilida, shuningdek, hozirgi turkiy tillar uchun ham birdek sermahsul hisoblanadi[5]. Ularda ayrim fonetik farqlar kuzatilsa ham[6] semantik jihatdan o‘xshashlik kasb etadi.

Bu bo‘yicha Sh.Usmonovaning «O‘zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar», U.Rashidovaning «O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili *(ko‘z, qo‘l va yurak komponentli iboralar misolida)»* kabi bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqol, matal, aforizmlar va boshqa barqaror birliklardagi aynan somatik so‘zlar bilan bog‘liq ishlar frazeologizmlar kabi salmoqdor emas.

Somatik so‘zlarni ajratish va tadqiq qilishda biologik omillar inobatga olindi, shu bilan bir qatorda fanlararo integratsiya hamda tavsifiy, qiyosiy, dissiplinar kabi metodlardan foydalanildi[7].

Qaysi guruhga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, turkiy tillarning frazeologik birliklari bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Bu hol turkiy tillarda kechayotgan o‘xshash jarayonlar frazeologik birliklarga ham ta’sir ko‘rsatib, leksik-grammatik hamda struktur-semantik o‘zgarishlar til birligi sifatida ularda ham o‘z aksini topganini ko‘rsatadi. «Frazeologik birliklarning ma’lum bir qismi juda qadim zamonlardan – mustaqil umumxalq turkiy tillari shakllana boshlagan davrlardan mavjud bo‘lgan. Keyinchalik esa umumxalq, undan so‘ng milliy til xususiyatiga ega bo‘lgan bu tillarning frazeologiyasi tarkibida qo‘llanib, hozirgi kungacha yetib kelgan»[8].

Ozarbayjon tili o‘g‘uz tillari guruhiga, o‘zbek tili esa qarluq tillari guruhiga mansubdir. Turkiy tillari turli til guruhlariga kirishiga qaramay, ozarbayjon va o‘zbek tillarida leksik-semantik jihatdan bir xil yoki o‘xshash bo‘lgan frazeologik birliklar juda ko‘p. «Ma’lumki, turkiylar turli geografik hududlarda yashasalar ham, frazeologik birliklarda umumiy jihatlarni saqlab qolganlar va bu o‘xshashlik ba’zan so‘zlarning mutlaqo bir xil bo‘lishi, ba’zan esa umumiy ma’nolar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi»[9].

Turkiy tillarining frazeologik tizimi hind-yevropa tillaridan farqli ravishda yuqori darajada tipologik o‘xshashlik va umumiy struktur-semantik xususiyatlarni namoyon etadi. Bu yaqinlik turkiy tillarining taraqqiyot jarayonida yuz bergan leksik-grammatik o‘zgarishlar frazeologik darajada ham xuddi shu tarzda namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi.

Mavjud frazeologik birliklarning muhim qismi qadimgi turk davriga, ya’ni umumturkiy til birligining shakllanish bosqichiga borib taqaladi. Ushbu birliklar vaqt o‘tishi bilan alohida milliy tillarning (masalan, ozarbayjon, o‘zbek va boshqalar) frazeologik fondida o‘ziga xos xususiyatlarini saqlagan holda hozirgi davrgacha yetib kelgan. «Ozarbayjon tili turkiy tillarining o‘g‘uz guruhiga, o‘zbek tili esa qarluq guruhiga mansubdir. Shunga qaramay, bu ikki til o‘rtasidagi yaqinlik juda katta. Buni frazeologik birliklarni o‘rganish jarayonida keng qo‘llaniladigan frazeologizmlarning semantik yuklamasi va ularning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi so‘zlarning o‘xshashligi yoki yaqinligi ham isbotlaydi[10].

Frazeologik birliklar jihatidan juda boy bo‘lgan ozarbayjon va o‘zbek tillarida tana a’zolari nomi bilan hosil bo‘lgan frazeologizmlarning ko‘pligi alohida e’tiborni tortadi. «Asosiy komponenti fe’l bo‘lgan frazeologik birliklarda somatik birliklardan juda ko‘p

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBrqut_ota_kitobi.

[2] Mirzəyeva L. (2024). Azərbaycan və ingilis dillərində somatik frazeologizmlər. XI Beynəlxalq Türk Dünyası Araşdırmaları Simpoziumu 11-13 İyun 2024 / Bakı, səh. 603 – 615.

[3] M.Koshg‘ariy Devonu lug‘ati-t-turk. Qosimjon Sodiqov nashrga tayyorlovchi. – Toshkent, G‘. G‘ulom, 2017. – B. 36-41.

[4] A.Mamatov, B.Boltayeva. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantikpragmatik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent, 2018. – B. 22.

[5] Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Филол.фан. док. … дис. Автореф. – Тошкент. 1977. – B. 6.

[6] E.Vohidov. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – B. 39.

[7] Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari / uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 46-55.

[8] Kazımov İ. (2012). Axısqa türkləri: dil, tarix və folklor. Elm və təhsil. – S.185-186.

[9] Məmmədova **Ş. (2025). Türk dillərində işlənən ortaq frazeoloji vahidlərin forma və məna xüsusiyyətləri (Azərbaycan, Türk Və Türkmən dillərində).** Mahmud Kaşğarlı Beynəlxalq Elmi Jurnal. Cild: 3 Sayı: 1 / 34-46, DOI: https://doi.org/10.36719/3005-3137/1/34-46

[10] Məmmədova **Ş. (2025). Azərbyacan və özbək dillərində ortaq işlədilən frazeoloji vahidlərin leksik-semantik xüsusiyyətləri, I. Uluslararası Balkan Türklerinin Dili, Edebiyatı Ve Kültürü Sempozyumu. – S.211-217.**

foydalaniladi»[1]. Pragmatik yondashuvga ko‘ra, tilda birinchi navbatda tilga olinadigan obyektlar insonga eng yaqin va hayot nuqtai nazaridan eng muhim bo‘lgan narsalar hisoblanadi. Shu jihatdan insonning jismoniy mavjudligini saqlab qolishda hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan a’zolar ilk nomlari tilga olinadigan obyektlar qatoriga kiradi.

Ozarbayjon va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning shakllanishida muhim o‘rin tutadigan tana a’zolari nomlarining har biri, asosan, ishlatilgan frazeologik birliklarda tegishli a’zoning asosiy funksiyasidan ilhomlangan ma’nolarni ifodalaydi. **Somatik frazeologik birliklar** deb ataladigan ushbu frazeologizmlar ozarbayjon va o‘zbek tillarida qiyosiy tarzda quyidagi tasnif asosida tahlil qilinadi:

1. O‘zbek va ozarbayjon tillarida semantik va leksik jihatdan o‘xshash frazeologik birliklar.

2. O‘zbek va ozarbayjon tillarida semantik jihatdan yaqin, leksik jihatdan esa farq qiladigan frazeologik birliklar.

3. O‘zbek va ozarbayjon tillarida leksik jihatdan o‘xshash, semantik jihatdan esa farq qiladigan frazeologik birliklar.

4. Ozarbayjon tilida idiomatik muqobili bo‘lmagan o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar.

1. O‘zbek va ozarbayjon tillarida semantik va leksik jihatdan o‘xshash somatik frazeologik birliklar.

Ushbu guruhdagi frazeologik birliklar semantik va leksik jihatdan bir-biriga teng bo‘lib, ularning orasidagi farq faqat fonetik xususiyatlarda namoyon bo‘ladi.

Tilini kesmoq *(o‘zbek tilida)* **– *dilini kəsmək*** *(ozarbayjon tilida)* **–** *bundan buyon biror fikrni qayta aytolmaydigan* ma’nosida qo‘llaniladi:

Dalaga qaytganing ma’qul. Dalaning bag‘ri keng, osmoni bepoyon. Faqat qizlar... Ularning tilini kesib bo‘ladimi! Go‘ringga g‘isht to‘ldirib o‘tirishgandir. I.Rahim. Chin muhabbat[2].

– Dilini kəs, axmağın qızı! Mənim ağzımı çox açdırma, yoxsa törətdiyin cəmi

işləri ortalığa qoyaram![3]

Tiliga tushmoq *(o‘zbek tilida)* – ***dilə düşmək*** *(ozarbayjon tilida)* – Bu mish-mish, ovozasi har tomonga yoyilish va ko‘p gapirilish ma’nosida ishlatiladi:

Qizim elga bergan va’dasining ustidan chiqadi, hammaning tiliga tushadi-yu, men sevinmay, kim sevinsin. R.Fayziy. Farog‘at[4].

Mən çəlik ürəkli bir yeni gəncəm:

Dildən – dilə düşmüş hekayətim var M.Müşfiq[5].

Bosh (bo‘yin) egmoq *(o‘zbek tilida) – baş əymək (ozarbayjon tilida)* **–**

Tegishli bo‘lish, kimningdir irodasini qabul qilish ma’nosida ishlatiladigan ushbu frazeologik birlik ozarbayjon tilidagi **«baş (boyun) əymək»** frazeologizmiga ekvivalentdir.

«Men uni oqlamayman, – dedi Mahkam aka Lyudmila Grigoryevnaning yoniga o‘tirib, – lekin boshini egib, yalinib kelsa, nima qilay?» O.Yoqubov. Ota izidan. (Rahmatullayev, 2022, s.94)

Arvadının mərdliyini görən kişi, ömründə düşmənə baş əyməz. M.Hüseyn. (Orucov, 2006, s.231)

Bel bog‘lamoq *(o‘zbek tilida)* **– *bel bağlamaq*** *(ozarbayjon tilida)* **–** Bu ikkala tilda ham ishonish, e’tibor qilish, tayanish kabi ma’nolarida ishlatiladi:

Onlar ichinda bir toifa borkim, doyim xizmatqa bellarin bog‘lab dag‘i karamga allarin ochib tururlar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. (Rahmatullayev, 2022, s.70)

Naçanliklərə, pristavlara, yasavullara bel bağlamaq olmaz. Ə.Haqverdiyev. (Orucov, 2006, s.255)

Ko‘z ochib yumguncha *(o‘zbek tilida)* **– *göz açıb yumunca*** *(ozarbayjon tilida)*

– *Bir zumda, tezda* ma’nosini bildiruvchi ushbu ibora har ikki tilda **ko‘z** somatik birliklari bilan tez-tez ishlatiladigan frazeologik birliklardan biridir.

Umr degan narsa ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketar ekan. Mirmuhsin. Jamila. (Rahmatullayev, 2022, s.253)

Göz açıb yumunca işini qurtardı. (Orucov, 2006, s.276)

2. O‘zbek va ozarbayjon tillarida semantik jihatdan yaqin, leksik jihatdan farq qiladigan somatik frazeologik birliklar.

Ushbu guruhdagi frazeologik birliklar ma’nosi jihatdan bir-biriga teng, ammo ularni tashkil etuvchi leksik elementlar bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, farq qiluvchi bu leksik birliklar somatik birliklar emas, balki o‘z shaklida ishlatiladi.

Tilga kirmoq *(o‘zbek tilida)* **– *dilə gəlmək*** *(ozarbayjon tilida)* **–** O‘zbek tilida bir nechta ma’no kasb etadigan ushbu ibora **«yangi gapira bosh-**

[1] Məmmədova Ş. (2025). Mahirə Nağıqızının əsərlərində feli frazeoloji birləşmələr. Buta International Journal of Scientific Research № 3 (21). – S.10-17

[2] Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2022. – B. 494.

[3] **Çəmənzəminli Y.V. (2005). Əsərləri. Üç cilddə. I cild. – Bakı, Avrasiya Press. – 120 s.**

[4] Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2022. – B. 493.

[5] Orucov Ə., Abdullayev B., Rəhimzadə N. (tərtibçilər) (2006). Azərbaycan dilinin izahlı lüğəti. I cild (IV cilddə). – Bakı, Şərq-Qərb. – 630 s.

lagan chaqaloq», **«muayyan muddatdan keyin gapira boshlagan»** va **«o‘q otishni boshlamoq»** ma’nolarini ifodalaydi. Ozarbayjon tilida ushbu frazeologik birlikning semantik ekvivalenti **«dilə gəlmək»** iborasidir.

Ozarbayjon tilidagi **«dilə gəlmək»** iborasi o‘zbek tilidagi frazeologizmning faqat birinchi ikki ma’nosini beradi. Ushbu frazeologik birikmada **«til»** somatik birligi bir xil ishlatilgan, ammo fe’l boshqa shaklda qo‘llanilgan.

Oqsoqol derazaning zihiga omo natgina o‘tirib, hakkam-dukkam soqol o‘sgan iyagiga qo‘lini tirab o‘ylanib qoldi. Oxiri tilga kirdi. S.Ahmad. Hukm. (Rahmatullayev, 2022, s.492)

Fəhlələr dilə gəliblər ki, ay ağa, bizim çörək pulumuzu alırsan,biz ki acından ölməyəcəyik. **«Mol. Nəs.» (**Orucov, 2006, s.625)

Tildan qolmoq *(o‘zbek tilida)* **– *dili tutulmaq*** *(ozarbayjon tilida)* **–** O‘zbek tilida **«so‘zlash qobiliyatini yo‘qotish», «lom-mim bo‘lib qolish»** ma’nosida ishlatiladigan ushbu frazeologik birlikning ozarbayjon tilidagi semantik ekvivalenti **«dilə gəlmək»** ifodasidir. Ushbu frazeologik birlikda **«til»** somatik birligi o‘zbek tilida qarshi chiqishlik holatda, ozarbayjon tilida esa egalik **(mənsubiyyət)** qo‘shimchasi bilan ishlatilgan. Fe’lning shakli farq qilsa-da, frazeologik birlik har ikki tilda **bir xil ma’noga ega**.

Xo‘jabekov tildan qoldi, ket deganday imo qildi. (Rahmatullayev, 2022, s.491)

Qapını açan tək binəvanın dili tutuldu. Birtəhər soruşdu ki, «bəs niyə buyurubsunuz?»[1]

Ko‘z qismoq *(o‘zbek tilida)* **– *göz basmaq, göz vurmaq*** *(ozarbayjon tilida)* **–** O‘zbek tilida ko‘p ma’noga ega bo‘lgan bu ibora «biror narsaga ko‘z bilan ishora qilish», «biror fikrga hamdardlik bildirish», «munosabat bildirish» degan ma’nolarni anglatadi. Ozarbayjon tilida bu frazeologik birlikning semantik ekvivalenti «göz basmaq», «göz vurmaq» iboralaridir:

Qizlar bir-birlariga qarashib oldilar, Buvinisoga qarab ko‘z qisdilar. (Rahmatullayev, 2022,s.255)

Nərgizlə **Gülşən** bir-birinə göz vurdular. (Orucov, 2006, s.278)

1. O‘zbek va ozarbayjon tillarida leksik jihatdan o‘xshash, semantik jihatdan esa farq qiladigan frazeologik birliklar.

Bu guruhdagi iboralar bir xil so‘zlar bilan tuzilgan bo‘lsa-da, ular ifodalaydigan ma’no jihatidan bir-biridan farq qiladi. Soxta ekvivalentlar deb ham hisoblanishi mumkin bo‘lgan bunday frazeologik birliklar, ayniqsa, qarindosh tillar o‘rtasidagi tarjimalarda diqqat bilan ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan og‘zaki iboralardir. Bu frazeologizmlarning leksik va shuning uchun vizual o‘xshashliklari odamlarni ularning ma’nolari ham o‘xshash bo‘lishi mumkin degan noto‘g‘ri tushunchaga olib kelishi mumkin.

Tili uzun bo‘lmoq – Tili uzun qilmoq *(o‘zbek tilida)* **– *dili uzanmaq*** *(ozarbayjon tilida)* **–** O‘zbek tilida «gapirish huquqiga ega bo‘lish, gapirish huquqiga ega bo‘lish» ma’nosida ishlatiladigan ushbu ibora bilan bir xil leksik tarkibga ega bo‘lgan «tilini cho‘zmoq» frazeologik birligi ozarbayjon tilida *«***əvvəllər susduğu halda birdən-birə danışmağa başlamaq, etiraz etmək, narazılığını bildirmək***»* ma’nosida ozar tilida ishlatiladi:

Ishni o‘rinlatgan kishining yuzi issiq, tili uzun bo‘ladi. (Rahmatullayev, 2022, s.491)

O *gündən* ***etibarən*** *gününün dili uzandı*: (**Çəmənzəminli**, 2005, s.133)

Oyoq osti qilmoq *(o‘zbek tilida)* **– ayaq üstə qoymaq** *(ozarbayjon tilida)* **–**

O‘zbek tilida bu frazeologik birlik «xo‘rlamoq, tahqirlamoq» degan ma’noni anglatadi. Ozarbayjon tilida esa leksik jihatdan bir xil bo‘lsa-da, **«ayaq üstə qoymaq»** iborasi semantika jihatidan farq qiladi va **«dirçəltmək, sağaltmaq, gücləndirmək»** ma’nosida ishlatiladi.

Ul qadar yumshoq bo‘lmag‘ilkim, seni ayoq ostinda qo‘yg‘aylar. S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy. (Rahmatullayev, 2022, *s.51)*

Bosh tovlamoq *(o‘zbek tilida) – başını tovlamaq – (ozarbayjon tilida)* – o‘zbek tilida bu frazeologik birlik «rad etish», «rozi bo‘lmaslik» kabi ma’nolarida ishlatilsa-da, ozarbayjon tilida bu birlik **«aldatmaq»** ma’nosida ishlatiladi:

*Uzoqlamay Normuhammad qush begi Qo‘qondan bosh tovlab, o‘z oldiga mustaqil hukumat e’lon qilgan bo‘ldi. A.Qodiriy. O‘tgan kunlar. (*Orucov, 2006, *s.97)*

Başımı tovlayıb məni də apardılar.

4. Ozarbayjon tilida idiomatik muqobili bo‘lmagan o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar.

Bu guruhga kiritilgan o‘zbek tilining frazeologik birliklari ozarbayjon tilida ekvivalenti yoki muqobili yo‘q.

Bosh tortmoq – o‘zbek tilida «rad etmoq, e’tiroz qilmoq» ma’nosida ishlatiladigan bu iboraning ozarbayjon tilida asosiy so‘z ishtirokidagi ekvivalenti yo‘q.

Zokir ota borishdan bosh tortgan edi, Novikova qistab qo‘ymadi. A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. (Rahmatullayev, 2022, s.97)

Tilni yormoq

Ozarbayjon tiliga tarjima qilinganda *tilni ajratish* degan ma’noni anglatuvchi bu ibora o‘zbek tilida «juda mazali» taomni tasvirlash uchun ishlatiladi:

«Erbo‘ta yotib oldi, charchabdi shekilli bolam

[1] Haqverdiyev **Ə. (2005). Seçilmiş əsərləri. İki cilddə.** II cild. – Bakı, Lider nəşriyyat. – 148 s.

bechora, – onasining o‘rniga Xadicha buvi javob berdi. *Keyin ko‘kcha kosalarini yoshlar oldiga surib maqtadi: – Olinglar, biram shirin chiqdiki, tilni yoradi».* ***M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.*** (Rahmatullayev, 2022, *s.497)*

Frazeologik birliklar – bu so‘zlarning leksik ma’nolaridan tashqari yangi ma’nolarga ega bo‘lgan lingvistik iboralar. Bu iboralarning shakllanishi birdaniga emas, balki vaqt o‘tishi bilan ma’lum ijtimoiy va madaniy voqealar natijasida sodir bo‘ladi. Shunday qilib, frazeologizmlar o‘zlari mansub bo‘lgan jamiyatlarning hayot tajribalari, madaniyatlari, turmush tarzi, hayot falsafalari va qadriyatlari haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Ushbu ma’lumot yuqorida aytib o‘tilgan jihatlar tufayli jamiyatlarni o‘rganish va baholashda ishlatilishi mumkin bo‘lgan diqqatga sazovor elementlardir. Shu nuqtai nazardan, frazeologik birliklar nafaqat tilshunoslik, balki folklor, antropologiya va sotsiologiya kabi ilmiy sohalar uchun ham muhim ma’lumotlarni taqdim etadi.

Frazeologik birliklarni tashkil etuvchi elementlarni o‘rganib chiqsak, organ nomlari keng qo‘llanilgani ko‘rinadi. Bu holatning asosiy sababi shundaki, mavhum va ifodalash nisbatan qiyin bo‘lgan tushunchalarni aniq va tez-tez ishlatiladigan kalit so‘zlar yordamida konkretlashtirish orqali osongina ifodalash mumkin.

Ushbu tadqiqotning mavzusi ozarbayjon va o‘zbek tillarida tana a’zolari uzvlarining nomlarini o‘z ichiga olgan va frazeologiyaga boy birliklardir. Tadqiqotda frazeologik birliklar avvalo ma’nosi va leksik elementlariga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi: o‘zbek va ozarbayjon tillarida semantik va leksik jihatdan yaqin iboralar, ma’nosi o‘xshash, ammo o‘zbek va turkiy tillarida leksik jihatdan farq qiluvchi iboralar va leksik jihatdan yaqin, ammo ma’nosi turlicha, biroq ozarbayjon tilida iboraviy ekvivalenti bo‘lmagan o‘zbek tilining frazeologik birliklari.

Qizig‘i shundaki, tasniflangan frazeologizmlarning aksariyati ikkala tilda ham o‘xshash ma’no va ifodalarga ega. Bu o‘xshashlik, shubhasiz, bu ikki tilda so‘zlashuvchi xalqlarning umumiy tarixi, madaniyati va ijtimoiy tuzilishiga asoslangan. Frazeologik birliklar jamiyatlarning hayot tajribalariga asoslanganligi va vaqt o‘tishi bilan ma’lum bir to‘planish natijasida shakllanganligini hisobga olsak, ozarbayjon va o‘zbek tillari turkiy tillar oilasiga kiradi. Shunday qilib, ular nafaqat frazeologizmlar, balki umumiy lug‘at jihatidan ham bir-biriga juda yaqin. Boshqa tomondan, albatta, bu ikki tilda so‘zlashuvchi xalqlarning geografik masofasi vaqt o‘tishi bilan bu jamiyatlarning tili va madaniyatida muqarrar ravishda aks etgan. Bu holat bizning tasnifimizning to‘rtinchi guruhini tashkil etuvchi ozarbayjon tilida idiomatik ekvivalentlari bo‘lmagan o‘zbek frazeologik birliklari bo‘limida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda yana bir e’tiborga loyiq jihati shundaki, ikkala tilda ham ko‘p sonli frazeologik birliklarning mavjudligi bo‘lib, ularda qarama-qarshi tana qismlarining nomlari mos keladigan organning vazifasi yoki tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq holda ishlatiladi.

Rezyume. Ushbu maqolada Ozarbayjon va o‘zbek tillarida mavjuda bo‘lgan iboralarning somatik biriklar orqali ifoda etilishi, ikki tilda qo‘llaniluvchi somatik frazemalarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqotda o‘zbek tilida tana a’zolari ishtirokida hosil bo‘lgan frazeologizmlarning ozarbayjon tilidagi muqobillari bilan qiyosiy tahlili bir necha yo‘nalishda olib borildiю

Resume. In this article, the expression of phraseological units existing in the Azerbaijani and Uzbek languages through somatic constructions is examined, and a comparative analysis of somatic phraseological units used in both languages is carried out. In the study, a comparative analysis of phraseological units formed with the participation of body parts in the Uzbek language and their Azerbaijani equivalents was conducted in several directions.

Резюме. В данной статье рассматривается выражение фразеологических единиц, существующих в азербайджанском и узбекском языках, посредством соматических сочетаний, а также проводится сравнительный анализ соматических фразеологизмов, употребляемых в обоих языках. В исследовании сравнительный анализ фразеологических единиц, образованных с участием названий частей тела в узбекском языке, и их азербайджанских эквивалентов был проведён по нескольким направлениям.